

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

K.A.Abrorxonova

*Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri,
PhD. dotsent*

Kamolova Nodirabegim

*Nizomiy nomidagi TDPU ning
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida raqamli ta'lim muhitida tanqidiy tafakkur va axborot madaniyatini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, zamonaviy texnologiyalar, mentalitet, innovatsiya, metod.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal suratlarda rivojlanib, ommalashib bormoqda. Hozirda hayotimizni bu texnologiyalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Ular hayotimizning har bir jabhalarida o'zining sezilarli tasir ko'rsatmoqda. Shunday sohalardan biri bu ta'lim-tarbiya sohasidir. Hammamizga ma'lumki yangilanish va rivojlanishlarga yoshi kattalardan ko'ra yosh bolalar ko'proq intilishadi. Ular hamma narsani bilishga, ko'p narsalarni o'rganishga moyil bo'lishadi. Raqamli texnologiyalar va turli tarmoqlari ham bugungi yoshlarning o'rganishga, bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirgan. Chunki bu vositalar yordamida axborotlarni olish ancha oson va qulay. Ammo bugungi kunda axborot madaniyatiga ega bo'lmagan shaxslarning bu kabi tarmoqlardagi turli yolg'on, feyk xabarlariga ishonib qolish hollari juda ko'p uchramoqda. Eng achinarlisi ularning ko'p qismini hali voyaga ham yetmagan yoshlar tashkil qilmoqda. Chunki ularda axborotlarni qabul qilish, to'g'ri baholash va saralay olish haqida ko'nikmalar juda kam. Shu bilan birgalikda bugungi kunda yoshlar o'rtasida diniy ekstrimizm, terrorizm turli inson ongiga, ruhiyatiga tasir etuvchi video o'yinlar va shu kabi yot g'oyalarga ergashish hollari juda ko'p. Bularning barchasiga sabab yoshlarda bu kabi vositalarga qarshi imunitetlarning mavjud emasligi. Shu sababli jamiyatda bu kabi holatlarni oldini olish uchun bolalarga boshlang'ich bilimlarni berish jarayonida axborot madaniyati, axborot savodxonligini ham ularga singdirib borish kerak. Shu bilan birgalikda har bir rivojlanish tomon borayotgan davlat o'z kelajagini yoshlarining bugungi tarbiyasiga qarab belgilaydi. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, ularning zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanishlarini ta'minlash boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Buning uchun

boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu kabi vositalardan foydalanishni cheklash emas, ulardan foydali maqsadlar uchun foydalanish ko'nikmalarini singdish kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarning ota-onalarining o'rni beqiyos. Chunki bugungi kunda o'z hayotini bu kabi texnikalarsiz tasavvur eta olmaydigan ota-onalar ham, ustozlar ham ko'p. Ayniqsa o'quvchilarning uyda o'tadigan vaqtlari ko'proq internet o'yinlari va tarmoqlarga sarflanadi. Agar ularda bu tarmoqlardan foydali narsalar foydalanish ko'nikmasi bo'lsa ular o'z vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazishlari mumkin. Bugungi kunda ta'lim jarayonlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan saytlar, turli qiziqarli o'yinlar, videodarslar mavjud. Bu dasturlar yordamida to'ldirilgan dars jarayonlari ham qiziq, ham foydali bo'ladi. O'quvchilarning ham bu darslarga qiziqishi ortadi va undagi topshiriqlarni o'zlashtirishi osonlashadi. Shu bilan birga ularda internet tarmoqlaridan bilim olish maqsadida foydalanish mumkinligi haqida ko'nikmalar paydo bo'ladi. Bolalarda axborot savodxonligini rivojlantirish ularning dunyoqarashi kengayishiga, bugungi axborot olamida ma'lumotlarni bir biridan farqlay olishiga, ularga tanqidiy baho bera olishiga va ular orasidagi keraksizlaridan voz kecha olishiga yordam beradi. Ma'lumki, bolalar kattalarga nisbatan qiziquvchan bo'lishadi. Bu qiziquvchanlik ortidan esa ular taqiqlangan saytlar, turli zararli tarmoqlarga kirib qolish ehtimoli katta. Agar ularda unga qarshi immunitet maktab davridan boshlab paydo qilinsa ancha foydali bo'ladi.

Buning uchun maktablarda axborot savodxonligi va raqamli texnologiyalardan foydalanishga doir darslar bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 10- sentabr kuni axborot texnologiyalari sohasida salohiyatli kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishlash masalalari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazilgan. Yig'ilishda ta'kidlanishicha, raqamli iqtisodiyot mamlakat taraqqiyotining asoslaridan biri sifatida belgilangan. Shu maqsadda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish boshlangan. Jumladan, uning doirasida hududlarda 89 ta, tarmoqlarda 200 dan ortiq loyiha hayotga tatbiq etilgan. Ushbu loyihalar, umuman, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Bir million dasturchi" loyihasi amalga oshirilgan. Hozirgacha bu loyiha doirasida 567 ming o'g'il-qiz bepul saboq olgan. E'tiborlisi, ularning 79 foizi maktab o'quvchilaridir. Ular orasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ham bor. Bularning barchasi mamlakatimizda inovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga, raqamli ta'lim tizimlarining rivojlanishiga qo'yilgan yana bir qadamdir.

Innovatsiya—inglizcha so'zdan olingan bo'lib, kiritilgan yangilik yoki ixtiro degan ma'nolarni anglatadi. Ilmiy tajribaga tayangan ilmiy-texnika yutuqlari, texnika va texnologiya sohaslariga kiritilgan yangiliklar.

Ta'lim sohasiga bu kabi innovatsiyalarning kirib kelishiga asosiy sabab shundaki, bugungi dunyo shu qadar tez rivojlanyaptiki unga yetib olish uchun bizga kechagi bilimlar yetmayapti. Bugun o'rganmadingmi ertangi kun uchun sen "eski"ga aylanding. Xuddi shunday raqamli texnologiyalarda ham bugun bizga o'rganishdan to'xtamaydigan, ertangi kunni tahlil qila oladigan, yangiliklar qilishdan cho'chimaydigan, bir so'z bilan aytganda, yangi fikrli yangi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj juda katta. Shu sababdan ham bugun biz raqamli texnologiyalar nima ekanligini yoshlarga boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatishimiz lozim.

Muhtaram Prezidentimizning yana bir gaplari bor:—"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Albatta har birimiz rivojlanishimiz, ammo bu o'zligimizni yo'qotishimizga sabab bo'lmasligi kerak. Zamonaviy texnologiyalarni ham o'rganayotganimizda yoki o'rgatayotganimizda bu bizga, o'zligimizga, mentalitetimizga mosmi yo'qmi bu jihatlarga ham e'tibor berishimiz kerak.

Mentalitet— (lotincha: mentalis — aqliy) — ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning Mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlar, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi.

O'quvchilarga raqamli texnologiyalar haqida malumotlar yetkazish o'qituvchilardan katta mahorat talab etadi. Ayniqsa ular boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lsa. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarga turli nazariy, bolalar uchun murakkab bo'lgan metodlardan emas, balki, o'quvchilarga qiziq bo'lgan o'yinli metodlardan foydalanishlari kerak. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar asosida dars jarayonlarini tashkil qilish unchalik ham murakkab ish emas. Shunday bo'lishiga qaramay o'qituvchilar tomonidan tanlangan har bir metodlar o'quvchilarning dunyoqarashiga o'z tasirini o'tkazishini inobatga olgan holda, ularning yoshiga, fikrlash doirasiga va eng asosiysi o'quvchilar auditoriyasiga qarab turlicha tanlanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'lishadi va turli rang-barang suratlarga qiziquvchan bo'ladi. Shularni inobatga olgan holda ularga ko'proq elektron shakldagi rasmi hikoyalar, dars mavzusiga oid turli multimedialar va tillarni o'rganish uchun multfilmlardan foydalanish mumkin.

Multimedia (lotincha — ko‘p va — vositachi bo‘lmoq) — kompyuterning matn, grafik, tovushli va video ma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Shu qurilmada tayyorlangan dasturlardir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev :-“Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz”. 2023-yil 26-sentyabrda O‘zbekiston respublikasi prezidentining “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-79-qaroriga ko‘ra:

-Maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

-Jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

- O‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas‘uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

-Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or maktab direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

-Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish;

-O‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish Rivojlantirish dasturining asosiy tamoyillari etib belgilandi.

Bugun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining oldida ertaga jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega, bilimli salohiyatli, zamonaviy texnologiyalar bilan bemaolol ishlay oladigan, kreativ fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalarga boy yoshlarni tarbiyalashdek mas‘uliyatli va mashaqqatli vazifa turibdi. Ularning kasbiy faoliyati mana shunday zarurat bila chambarchas bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirish.Strategiya, innovatsiya va ilg‘or tajribalar”—Buxoro 2021-yil.

2.“Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning integratsiyasini ta’minlash”—Umida Xalikova-maqola.

3.“Prezident hikmatlari”rasmiy sahifasi.

4. “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida” prezident farmoni.
5. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.
6. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
7. Norboy o’g’li, H. F. (2023). Umumiy o’rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO’PLAM IYUL 2023 yil. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.
8. Safarova P.F., Sh.Ne’matov va boshq. O’quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar.- T:Fan va texnologiya, 2011 yil. 160b. [1,2], [1,8].
9. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. (manual). Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010 yil. [4,4]
10. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.
11. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang’ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.
12. Hayitov, A. Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.
13. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang’ich sinif o’quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.
14. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
15. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang’ich ta’limda innovatsiyalar*, 1(Архив№ 2).
16. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
17. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
18. Norboy o’g’li, H. F. (2023). UMUMIY O’RTA TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 37(1), 44-48.